

## JAMOAT HAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMIDA PSIXODIAGNOSTIKANING AHAMIYATI

*MATMUSAYEV Toxirjon Mutalibovich*

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

*Tayanch so'zlar:* subyekt, stereotiplar, psixodiagnostika, atributiv, subyektiviz, funksiyalar.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lgani singari mamlakatimizdagi oliy ma'lumotli harbiy kadrlarni tayyorlashga mo'ljallangan oliy ta'lim muassasalar o'quv dasturlari bo'yicha "Psixologiya" fani o'qitilar ekan, ularda hozirgi zamon psixologiyasi, psixologik tadqiqotlar olib borish metodlari haqida tegishli ma'lumotlar beriladi. Quyida, psixodiagnostika tarixi, undan harbiy sohalarda foydalanish tarixi, havfsizligini ta'minlash tizimida haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Hech bir fan dabdurustdan, bo'sh joyda yuzaga kelmaydi. U yuzaga kelgunga qadar, uzoq davr mobaynida, insoniyatning ko'p asrlik bilimi, o'zini-o'zi va atrof olamni bilib borish tajribasiga asoslangan g'oyalari, tasavvurlari, mulohazalari majmui shakllanib boradi. Hozirgi vaqtda psixodiagnostika o'zida mujassamlashtirgan bilimlar, insoniyat hayotiy faoliyatining ko'plab jabhalarida ro'y bergan.

Odamlar boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishib, o'zaro muloqotda bo'lar ekan, shubhasiz ular o'rtasida bir-birini (subyekt tomonidan boshqa shaxsni) baholash jarayoni kechadi. Bunda, aksariyat hollarda, boshqa shaxsni haqiqatan ham bilish, anglash emas, balki, subyekt tomonidan subyektiv xis qilinadigan (tuyuladigan) va uning o'z hulqi xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan tipik sifatlarini boshqa odamlarga (ro'parasidagi odamga) xos deb o'ylash kuzatiladi. Bu o'rinda "Sen menga do'stingni kimligini ayt. Men senga - seni kimligingni aytaman!" - degan iborani yodga olish joizdir.

Gap subyekt tomonidan boshqa bir odamni baholash haqida borar ekan, psixologiya fanlari doktori, akademik A.A.Rean: "Hayotda odamlar boshqa shaxsni baholashda, uni, u haqda o'zi "oldindan tayyorlab qo'ygan" "eskizi"ga moslashtiradi" deb ta'kidlaydi (3).

Afsuski bunday holat deyarli har doim kuzatiladi. Agar bunday ish bilan “Odam-odam” kasb toifasiga kiruvchi sohalar xodimlari yoki faoliyati bevosita sotsionomik tip deb yuritiluvchi sohalar mutaxassislari shug‘ullangudek bo‘lsa, u yanada achinarli bo‘ladi. Bunday tipga mansub kasblar sinfiga menedjerlar, pedagoglar, vrachlar ijtimoiy xodimlar va sh.k. kiradi. Ular faoliyatining bosh pred-meti boshqa odam hisoblanadi. Harbiy soha, jumladan, Jamoat havfsizligini ta’minlash idoralari xodimlari o‘z faoliyati klassifikatsiyasiga ko‘ra, aynan shu toifaga mansubdir. Bu o‘rinda subyektivizmning haddan ziyodligi, shaxsni baholashda “eskiz”larga, stereotiplarga asoslanishning ustuvorligi jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shaxs psixodiagnostikasining muhim vazifalaridan biri, aynan boshqa odamning adekvat obrazini tuzish uchun obyektiv asosni yaratishdan iborat. Atributiv psixologiya, hayotiy psixologiya “ko‘chadan kelgan odam” shaxsini eskizga moslashtiradi, psixodiagnostika esa, aksincha uni muayyan shaxsga maksimal yaqinlashtirishga intilib, shu eskizga aniqlik kiritadi. “Odam-odam” kasblar klassifikatsiyasi sohasiga mansub xodim, ayniqsa Milliy Gvardiya harbiy qismlarida psixologik faoliyatni amalga oshiruvchi amaliyotchi psixolog faoliyatida markaziy o‘rinni boshqa shaxs bilan psixologik aloqa o‘rnatish, odamlarga ta’sir etish va ular bilan maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro munosabatni tashkil qilishdek o‘ta muhim vazifa egallar ekan, bu jarayonda subyektivizmning ortiqchaligi jiddiy hatolarga olib kelishi mumkin. Bu ta’sir etish va o‘zaro munosabatlarning samarasi, ularni muayyan shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga adekvatligi darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Yuqorida aytilganlarning barchasi, sotsionik tipdagi kasblarga tegishli bo‘lib, ular kasbiy-pedagogik faoliyat uchun alohida ahamiyatga ega. Pedagogik faoliyat kabi, amaliyotchi psixolog faoliyati ham o‘ziga xos bo‘lib, uni o‘ziga xosligining eng muhim jihati, unda asosiy faoliyat (mehnat, xizmat) predmeti boshqa odam shaxsi ekanligidadir (2). Shuning uchun ham amaliyotchi psixolog faoliyatining asosi, sotsionomik tipdagi kasblarning keng sinfiga to‘g‘ri keladi. Biroq harbiy qismlarda amaliyotchi psixologik faoliyati, shu kasblar sinfi ichida ham, yanada o‘ziga xoslikka egaligi bilan farqlanib turadi. Chunki bu faoliyat markazida - harbiy idoralar qiziqish obyekti shaxsi, turli

kuchlar, omillar ta's iri ostida, bizning konstitutsion tuzumimizga zid yo'nalishlarda "shakllangan", dunyoqarashi, e'tiqodi, niyat-o'ylari hamma vaqt ham davlat manfaatlariga mos kelavermaydigan, o'ta murakkab shaxs turadi. Bu shaxs, boshqa turli ijtimoiyta'sirlarga o'ta sezgir (beriluvchan), "adolatsizlikni ko'ra olmaydigan", turg'unlik darajasi past va hokazo bo'lishi mumkin.

Yuqorida to'xtalib o'tilganidek, sotsionomik tipga mansub kasblardagi o'zaro munosabatlar va faoliyatning muvaffaqiyati, "boshqa odam" shaxsini bilishning adekvatligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bu o'rinda - bu bilish, oldindan aniq, adekvat bo'lgani maqul. Har qanday o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatdan oldin, shu "boshqa odam" shaxsi haqida oldindan adekvat bilim shakllangan bo'lishi shart. Chunki, shu ta'sir etishning o'zi va ta'sir etish uchun tanlangan usul, shu odam bilan o'zaro munosabatda bo'lish uning shaxsiy xususiyatlarini adekvat baholay oladigan bo'lishi lozim. Faqat shu asosdagina, o'zining kasbiy faoliyati natijalarini va "boshqa odam"ga ta'sir etish oqibatlarini oldindan ko'ra bilish mumkin bo'ladi.

Milliy gvardiya tizmi uchun "boshqa odam" shaxsini oldindan bilish tamoyili yana shuning uchun ham muhim ahamiyat kashf etadiki, unda qiziqtirayotgan shaxs xususiyatlarining namoyon bo'lishi, ifodalanishi, o'ziga xoslikka ega bo'lib, u shaxs aksariyat hollarda xodim uchun "yopiq" bo'ladi. Haqiqatan ham xodim ro'parasida turgan shaxs, o'z niyat o'ylari, rejalari, voqelikka bo'lgan munosabatini xodimga oshkora bildirmaydi. Bu o'rinda ular o'z hulqini shu qadar afsonalashtirib yuborishlari mumkinki, bu afsona, bunday "ijtimoiy-psixologik niqob" ostida qanday shaxs turganini etarlicha tajribaga ega bo'lmagan xodim, ilmiy asoslarsiz unga adekvat baho bera olmaydi.

Shaxs psixodiagnostikasi - xodimga yuqorida keltirib o'tilgan kabi ko'plab vazifalarni bajarishda yordam berishi mumkin. Albatta, bu o'rinda mazkur ish bilan shug'ullanayotgan psixolog, xodim, nafaqat etarlicha yuqori umumiy uslubiy kompetentlikka ega bo'lishigina emas, balki shu yordam yo'naltirilgan muammolar mohiyatini tushunishi ham juda muhimdir. Buning uchun shaxsni psixodiagnostika qilish metodikalarini tanlab olish kriteriyalari (mezonlari)ni to'g'ri idrok qilish, ularni to'g'ri tanlay bilish lozim. Bu borada psixologo -pedagogik xizmat xodimlari oldida turgan asosiy

qiyinchiliklar (muammolar)dan biri, shaxsni o'rganishga modjallangan psixodiagnostika vositalarining ishonchliligi va ilmiyligini ta'minlash muammosidir. Chunki, hozirgi vaqtda shaxsni o'rganishda foydalaniladigan psixodiagnostik vositalarni mahalliy sharoitlarga muvofiqlashtirish, ularning validliligi, ilmiyligi, aniqligi, ishonchliligini ta'minlashdek o'ta muhim masalani ijobiy hal etilishi juda katta muammo hisoblanadi. Bu masalada Rossiyani misol qilib olgudek bo'lsak, u davlatda malakali mutaxassis, psixolog olimlarning katta armiyasi mavjud. Ularning ilmiy rahbarligi ostida o'nlab psixologiya ilmiy tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu soha mutaxassislarini o'nlab universitetlar tayyorlanmoqda. Bizning Respublikamiz misolida esa, bu kabi ishlarni amalga oshiradigan institutlar, mutaxassislarga bo'lgan taqchillik juda kuchli. Bu taqchillikni hozircha shu soha mutaxassislari bu boradagi bilimlarni mustaqil o'qib o'rganishlari evaziga qisman bo'lsada bartaraf etish mumkin.

Mavjud metodikalar orasidan, qanchalik tekshirilgan, aniqlangan va murakkab psixodiagnostik vositalarni tanlab olmaylik, baribir, shuni yodda tutish kerakki: har bir metodika, har bir test, xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Ularda xatoga yo'l qo'yish ehtimoli mavjud. Bu hol yaxshi emas, aslida bunday bo'lmagani maqul edi. Biroq, bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqat! Bu haqiqat (reallik, voqelik) asosida, psixologiyaning vaqtinchalik (hozircha) mukammal emasligi emas, balki, barcha psixologik qonuniyatlar, xech bo'lmaganda, shaxs psixologiyasi sohasidagi ta'limotlar taxminiy-statistik mazmunga egaligi haqidagi fundamental sharoitlar yotadi (1). Buni tushunish uchun kamida ikki xil xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, har gal muayyan shaxsga individual-psixologik xulosa tuzishda, shaxs psixologiyasidagi shu taxminiylik (ehtimoliylik)ni inobatga olish kerak. Xulosa tili, u asoslangan ta'limot tabiatiga muvofiq kelishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, ishchi metodikalar batareyalari majmuini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1) ular shaxsning yaxlitligicha (butunligicha) ifoda etar ekan, shaxsni turli tomonlarini diagnostika qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak; 2) shaxsning birgina tomoni (xislati), imkon qadar turli metodikalar yordamida o'rganilishi kerak.

Shaxsni psixodiagnostik o'rganish natijalari, albatta matematik qayta ishlanishi kerak. Odatda, matematik hisoblar, qayta ishlashlar miqdorlarda ifodalanadi. Shaxsda u



yoki bu sifatning namoyon bo'lishi (ifodalanishi) ballarda baholanadi. Bu ballar, testning statistik meyorini ifodalovchi boshqa raqamlar bilan taqqoslanadi. Shunday taqqoslashlar asosida ma'lum bir xulosaga kelinadi. Biroq bu xulosa ham, bari-bir doimo sifatiy xarakterga ega bo'ladi. Bu o'rinda psixologning kasbiy mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, shaxs xislatlarini sifatiy - psixologik bayoni shunchalik chuqur, nafis va har tomonlama bo'ladi.

Nixoyat, shuni ham aytish joizki, shaxs psixodiagnostikasining o'zi ham etarli emas. Aksariyat hollarda shaxs diagnostikasidan faqat zarur tanlovni amalga oshirish maqsadidagina foydalaniladi, bu esa yagona maqsad hisoblanmasligi kerak. Shaxs psixodiagnostikasidan - shaxsni yanada kengroq rivojlanishi va o'zini-o'zi namoyon (safariy) qila olishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, uni tarbiyalash, o'z ustida mustaqil ishlab, zarur shaxsiy, kasbiy ahamiyatli sifatlarni o'zida rivojlantirish kabilarda ko'proq foydalanish kerak. Demak, undan harbiy sohalarga xizmatga va o'qishga nomzodni tanlab olish, o'rganish, tayyorlashdan boshlab, keyin ham uni tegishli lavozimlarga tayyorlash, uning kasbiy kamolotini oshirishda uzluksiz foydalanish maqsadga muvofiq (4).

Jumladan, bir qator mutaxassislar, psixolog olimlar, shaxs psixo- diagnostikasidan foydalanishga nisbatan, quyidagi aksentlarni aralash-tirib olib borishni taklif etadilar. Ya'ni shaxs psixodiagnostikasidan foydalanishda: selektlash funksiyasidan ko'ra - rivojlantirishni ta'min-lash funksiyasiga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydilar.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi 458-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 iyundagi PQ-3786-son «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика: Учебник для вузов /Л.Ф. Бурлачук.
4. Психология и педагогика в профессиональной подготовке сотрудников органов внутренних дел. Кн. в 5-ти частях. /Под ред. А.Ф. Дунаева, А.С. Батбишева. - М., 1992. Ч.1.- 44 с; Ч.2 - 174 с; Ч.3.-108 с; Ч.4.-132 с; Ч.5.-85 с.



5. Реан А.А. Психология и психодиагностика личности. Теория, методби исследования, практикум. -Спб.: Прайм-ЭВРОЗНАК, 2008.-255 с.

6. Зиверт Х., Зиверт Р. Подготовка к тестированию. /Пер. с нем. - М.: АО «Интерексперт», 1997. - 174 с.

